



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT ARHITEKTURA-QURILISH INSTITUTI**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti
bo'yicha**

**243-u-son
03.07.2021 yil.**

BUYRUQ

Samarqand sh.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 28-iyundagi "Oliy ta'lim tizimida Korrupsiyasiz soha loyahasini amalga oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi 281-sonli buyrug'i haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5927-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2020-yil 4-sentyabrdagi 22-2488-sonli topshirig'ida belgilangan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo'yicha 2020-2021 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"dagi vazifalar va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 28-iyundagi "Oliy ta'lim tizimida Korrupsiyasiz soha loyahasini amalga oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi 281-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

B U Y R U M A N :

1. Institutning barcha prorektorlari, fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlariga:
Institutda Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi (keyingi o'rinlarda bo'lim) tashkil etilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 28-iyundagi "Oliy ta'lim tizimida Korrupsiyasiz soha loyahasini amalga oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi 281-sonli buyrug'ining Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi to'g'risidagi namunaviy nizom 1-ilovaga, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talaba-yoshlar klubi faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizom 2-ilovaga muvofiq nizom loyihalarini institutda ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun kiritish yangi tashkil etilgan bo'lim boshlig'i zimmasiga yuklatilsin.
3. Barcha prorektorlar va jamoatchilik kengashi, xodimlar bo'limi boshlig'iga (G.Nurmuhamedova):
-bo'limga xodimlarni ishga qabul qilishni ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida amalga oshirish;
-bo'lim faoliyatini samarali tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar va jihozlar (mebel, telefon, kompyuter, printer, seyf va h.k) bilan ta'minlangan, alohida xizmat xonasini ajratish vazifalari yuklatilsin.
4. Yangi tashkil qilingan bo'lim boshlig'iga
-bo'lim negizida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talaba-yoshlar klubini tashkil qilish;

institutning xuksak ma'naviyatli, haqiqatparvar, halol va faol talaba-yoshlarini mazkur klubga a'zo sifatida qabul qilish va klub faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha zaruriy choralarini ko'rish;

-institutda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini yanada oshirish maqsadida tegishli amaliy choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.
5. Ushbu buyruqning ijrosini nazoratini o'z zimmasida qoldiraman.

Institut rektori v.v.b

O.B.Haitov

